

Joynamozim ustida



16:12 / 23.02.2023 1663

Kaftim ochiq qoladi,

Duolarim ostida.

Robbinga yuzlanaman,

Joynamozim ustida.

Ko'zlarimda yosh qalqir,

Qalbimda iymon balqir.

Shukronadaman axir,

Joynamozim ustida.

Kechirilish fikrida,

Dilim Robbim shukrida.

Zabonim Haq zikrida,

Joynamozim ustida.

Aslida Men bir gado,
Farzimni etib ado,
Jonim bo'lsaydi qazo,
Joynamozim ustida.

Men bir qulman Hojamga,
Shahanshox U olamga.
Labbay, deydi nolamga,
Joynamozim ustida.

Sabrimga bersin to'zim,
Vaslin qurboni O'zim.
Yeg'lab qoraydi ko'zim,
Joynamozim ustida.

Jannatidan umidvor,
Namozla qilgum bezor.
Tunlari bo'lib bedor,
Joynamozim ustida.

Zorman marhamatiga,
Mag'firati qastida.

Yo Rab Senla so'zlashsam,
Joynamozim ustida.

Shodiyaxon Qosimova Saidg'ofur qizi